


## V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol mollari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Xizmatlar sohasida 2021- yil 1- iyul holatiga 24,7 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,7 % ni tashkil etdi. Yangi korxona va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

### **Xizmatlar sohasiga taaluqli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 2021- yil 1- iyul holatiga*



**Ma'lumot uchun:** 2021- yil 1- iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 mingga ortdi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan va kichik biznes subyektlariga tegishli korxonalar va tashkilotlar soni 3,3 mingga ortishi kuzatildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan korxona va tashkilotlarda 124,5 % ni tashkil etdi. Ularning soni 2,2 mingtaga ortdi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o'sish sur'ati 112,2 % ni tashkil etib, ularning soni 0,2 mingtaga ko'paydi.

**2021- yil 1- iyul holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2021- yil 1- iyul holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar 46,2 % tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 7,8 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 5,6 % ga etdi.

Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.


Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,4 % ga teng bo'ldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) bozor  
xizmatlarning hajmi va o'sish sur'ati  
(2021- yil yanvar-iyun oylari uchun)**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>umumiy hajmga nisbatan % da</i>
<b>Jami – xizmatlar</b>	<b>7 021,6</b>	<b>122,5</b>	<b>100,0</b>
<i>jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	304,1	112,0	4,3
moliyaviy xizmatlar	1 865,3	155,3	26,6
transport xizmatlari	1 361,9	112,8	19,4
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmati	1 318,9	111,5	18,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	104,1	102,0	1,5
savdo xizmatlari	2 024,5	109,5	28,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	186,8	124,2	2,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	282,8	123,6	4,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	107,3	111,3	1,5
ijara xizmatlari	160,8	138,1	2,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	141,6	122,9	2,0
shaxsiy xizmatlar	296,8	118,9	4,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	49,1	102,9	0,7
boshqa xizmatlar	136,8	111,0	1,9


Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (28,8 %), moliyaviy xizmatlar (26,6 %), transport xizmatlari (19,4 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (4,3 %) tashkil etadi. Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,7 %), shuningdek, yashash va ovqatlanish kabi xizmatlar (1,5 %) egalladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi,**  
(2021- yil yanvar-iyun, jamiga nisbatan % da)




Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari 28,8 % eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

Savdo xizmatlari tarkibida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) xizmatlari yuqori ulush 84,8 % ni tashkil etadi.



2016-2021- yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturi"ni amalga oshirish natijasida moliyaviy xizmatlar – 155,3 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 123,6 % , aloqa va axborotlashtirish – 112,0 % va transport xizmatlari –112,8 % ko'rsatkich bilan yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %  
(2021- yil yanvar-iyun oylari uchun)**



Respublikamizda kredit siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 55,3 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari ijara xizmatlari (38,1 %), Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (24,2 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (23,6 %) va Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarida (22,9 %) qayd etildi.

Xizmatlar tarkibida savdo xizmatlari – 28,8 % ulush bilan etakchi o'rinni egallaydi. Savdo xizmatlari hajmining oshish omillari yangi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish, sanoat zonalarini tashkil etish va kengaytirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, turizm faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi.

Xizmatlar tarkibida transport xizmatlarining jami hajmga nisbatan ulushi 19,4 % ko'rsatkichga ega.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlar yashash va ovqatlanish sohasidagi xizmatlar (1,5 %) shuningdek, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,7 %) ga to'g'ri kelgan.

**Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish**  
(2021- yil yanvar-iyun oylari uchun)

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2020- yil yanvar-iyunga nisbatan %</i>	<i>jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2020- yil yanvar-iyunga nisbatan %</i>
<b>Andijon viloyati</b>	<b>7 021,6</b>	<b>122,5</b>	<b>100,0</b>	<b>2 193,1</b>	<b>120,2</b>
<i>shaharlar:</i>					
Andijon	2 397,2	125,5	34,1	5 304,8	123,2
Xonobod	212,8	115,6	3,0	4 914,8	114,0
<i>tumanlar:</i>					
Oltinko‘l	327,0	122,8	4,7	1 802,6	120,1
Andijon	389,9	121,9	5,6	1 451,6	119,4
Baliqchi	305,0	123,3	4,3	1 495,1	120,9
Bo'ston	173,2	114,1	2,5	2 359,1	111,9
Buloqboshi	259,3	119,0	3,7	1 788,3	116,9
Jalaquduq	272,4	116,2	3,9	1 444,6	114,2
Izboskan	342,8	122,2	4,9	1 415,9	119,8
Ulug'nor	175,4	115,0	2,5	2 890,2	112,7
Qo'rg'ontepa	396,8	123,8	5,7	1 811,2	121,9
Asaka	434,8	124,8	6,2	1 301,1	122,2
Marhamat	281,1	117,4	4,0	1 599,1	115,3
Shahrixon	404,9	124,3	5,8	1 327,7	121,7
Paxtaobod	399,0	122,9	5,7	2 031,6	120,5
Xo'jaobod	249,9	120,1	3,6	2 226,8	117,6

1)Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Andijon shahri (125,5 %) ga to'g'ri keldi.


Viloyat bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning 34,0 % dan ortig'i Andijon shahri (30,1 %), Asaka tumani (6,2 %), Shahrixon tumani (5,8 %) va Paxtaobod (5,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Nisbatan past o'sish sur'atlari Ulug'nor tumani (115,0 %), Bo'ston tumani (114,1 %), Xonobod shahri (115,6 %), Jalaquduq (116,2 %), Buloqboshi (119,0 %) va Xo'jaobod (120,1 %) tumanlarida kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 193,1 ming so'mni tashkil qildi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 20,2 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Andijon shahrida 5 304,8 ming so'mdan Asaka tumanida 1 301,1 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati**  
(2021- yil yanvar-iyun oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida – 5 304,8 ming so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 123,2 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Asaka (122,2 %), Qo'rg'ontepa (121,9 %) va Shaxrixon (121,7 %), Baliqchi (120,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi, Asaka (1 301,1 ming so'm), Shaxrixon (1 327,7 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, uning tarkibini, etarlicha rivojlangan jamiyat va rivojlangan ehtiyojlar bilan takomillashtirish mumkin va bu umuman hayot sifati kabi hodisa bilan bog'liq, chunki turli ehtiyojlarni qondirish jarayoni hayot sifatining muayyan standartini yaratadi.



## VI. TRANSPORT VA ALOQA

Mustaqillik yillarida transport va kommunikatsiya tizimini strategik rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda yaratilgan samarali transport tizimi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuv omilidir.

**Yuk tashish.** 2021- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti tomonidan 18,2 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi.

Yuk aylanmasi avtomobil transporti turlari tomonidan 397,0 mln. t-km.ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,9 % ni tashkil qildi.

### **Avtomobil transportida yuk tashish va yuk aylanmasi**

*(2021- yilning yanvar-iyun holatiga)*

	<i>2021- yil yanvar-iyun</i>	<i>2020- yilning yanvar-iyunga nisbatan % hisobida</i>
Tashilgan yuk, <i>mln. tn</i>	18,2	104,0
Yuk aylanmasi, <i>mln. t-km</i>	397,0	100,9

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportida yuk aylanmasining o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 101,7 % ni tashkil etdi va 216, mln. t-km. ga etdi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 54,5 % ni tashkil etdi (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 54,1 %).

Andijon viloyatining shahar va tumanlari kesimida tashilgan yuk bo'yicha etakchi o'rinni Andijon shahri (8 062,2 ming tonna) egallaydi. Shu bilan birga, eng yuqori ko'rsatkichlar Asaka (1 219,1 ming tonna) tumani, Andijon (1 134,9 ming tonna) tumanlarida kuzatildi.




**Shahar va tumanlar kesimida yuk tashish, ming tonna**  
(2021- yilning yanvar-iyun holatiga)

	<i>Jami tashilgan yuk ming tonna</i>	<i>2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan % hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>18 248,5</b>	<b>104,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	8 062,2	104,6	42,2
Xonobod	697,2	103,3	3,8
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	1 134,9	103,9	6,2
Asaka	1 219,1	104,0	6,7
Baliqchi	768,8	102,9	4,2
Bo'ston	301,4	103,0	1,7
Buloqboshi	407,4	103,2	2,2
Jalalquduq	646,4	103,4	3,5
Izboskan	735,7	103,6	4,1
Qo'rg'ontepa	841,9	103,8	4,6
Marhamat	516,4	103,5	2,8
Oltinko'l	699,3	103,4	3,8
Paxtaobod	728,3	103,7	4,0
Ulug'nor	307,8	102,9	1,7
Xo'jaobod	476,8	103,6	2,6
Shahrixon	704,9	103,8	3,9

Ko'rsatilgan yuk tashishda yuqori bo'lmagan ko'rsatkichlar Bo'ston (265,7 ming tonna) Ulug'nor (284,7 ming tonna) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Tashilgan yukning umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da**  
(2021- yil yanvar-iyun)



Hududlar bo'yicha tashilgan yukning yuqori ulushi bo'yicha etakchi o'rinni Andijon (44,2 %) shahar egalladi. Shu bilan birga Asaka (6,7 %) va Andijon (6,2 %) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatning yuk aylanmasi hajmida etakchi o'rinni Andijon shahar (168 445,6 ming tonna-km) shahri egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko'rsatkich Asaka (30 486,1 ming tonna-km), Andijon (26 303,1 ming tonna-km) tumanlarida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar kesimida yuk aylanmasi, ming tonna-km**  
(2021- yilning yanvar-iyun holatiga)

	<i>ming tonna-km</i>	<i>2020- yilning Yanvar-iyuniga nisbatan % hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>396 976,1</b>	<b>100,9</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	168 445,6	101,9	42,4
Xonobod	14 342,2	99,9	3,6
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	26 303,1	100,9	6,7
Asaka	30 486,1	100,6	7,7
Baliqchi	11 837,3	99,4	3
Bo'ston	7 571	99,3	1,9
Buloqboshi	11 999,2	100,3	3
Jalalquduq	14 782,7	100,1	3,7
Izboskan	1 1226	100,8	2,8
Qo'rg'ontepa	14 005,9	100,3	3,5
Marhamat	14 347,4	99,8	3,6
Oltinko'l	15 284,9	100	3,9
Paxtaobod	18 343,5	100,2	4,6
Ulug'nor	8 704,4	99,2	2,2
Xo'jaobod	11 596,2	100,1	2,9
Shahrixon	17 700,6	100,3	4,5

Ko'rsatilgan yuk aylanmasidagi yuqori bo'lmagan tonna-km quyidagi shahar va tumanlarda, Bo'ston (7 571 ming tonna-km) va Ulug'nor (8 704,4) ming tonna-km tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Tashilgan yuk aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da**  
(2021- yil yanvar-iyun)



Hududlar bo'yicha tashilgan yuk aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha etakchi o'rinni Andijon (42,4 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (7,7 %) va Andijon (6,7 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholiga, shu jumladan, iqtisodiyotning barcha sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xizmatchilarga, o'quv mkassasalarida ta'limolayotgan o'quvchi va talabalarga yuqori sifatli transport xizmatini ko'rsatish, avtomobil transporti oldida turgan eng muhim masaladir. Bugungi kunda hech bir fuqaro harakatini (bir manzildan boshqa bir manzilga borishni) transportsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

**Yo'lovchi tashish.** 2021- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportining barcha turlari tomonidan 320,9 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,2 % ni tashkil etdi. Yo'lovchi tashish aylanmasining ushbu davrda o'sish sur'ati 102,8 % ga etib, 5 705,3 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi.

#### **Avtomobil transport yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi**

	<i>2021- yil yanvar-iyun</i>	<i>2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan % hisobida</i>
<b>Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi</b>	<b>320,9</b>	<b>102,2</b>
<b>Yo'lovchiaylanmasi, mln. yo'lovchi-km</b>	<b>5 705,3</b>	<b>102,8</b>

Jami avtomobil transportidagi yo'lovchi aylanmasi 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 102,8 % ga etdi va 5 705,3 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

Viloyatning tuman, shaharlar bo'yicha tashilgan yo'lovchi bo'yicha etakchi o'rinni Andijon (126 942,1 ming kishi) shahri egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko'rsatkichlar Asaka (33 188,5 ming kishi), Andijon (20 211,5 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.

**Hududlar kesimida yo'lovchi tashish, ming kishi**  
(2021- yil yanvar-iyun holatiga)

	<i>ming kishi</i>	<i>2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan % hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>320 879,6</b>	<b>102,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	126 942,1	103,2	39,6
Xonobod	8 421,1	101,2	2,6
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	2 0211,5	102,2	6,3
Asaka	33 188,5	101,9	10,2
Baliqchi	11 440,2	100,7	3,6
Bo'ston	6 002,3	100,6	1,9
Buloqboshi	9 220,3	101,6	2,9
Jalalquduq	12 777,6	101,4	4,0
Izboskan	13 547,1	102,1	4,2
Qo'rg'ontepa	15 901,7	101,6	5,0
Marhamat	10 615,4	101,1	3,3
Oltinko'l	11 099,7	101,3	3,5
Paxtaobod	12 576,7	101,5	3,9
Ulug'nor	5 488,5	100,5	1,7
Xo'jaobod	11 979,3	101,4	3,7
Shahrixon	11 467,6	101,6	3,6

Ko'rsatilgan yo'lovchi tashishda nisbatan uncha yuqori bo'lmagan ko'rsatkichlar, Ulug'nor (5 488, ming kishi) va Bo'ston (2 429,3 ming kishi) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Tashilgan yo‘lovchining umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da**  
(2021- yil yanvar-iyun)



Shahar va tumanlar kesimida tashilgan yo‘lovchining yuqori ulushi bo‘yicha etakchi o‘rinni Andijon (39,6 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (10,2 %), Andijon (6,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatning yo‘lovchi aylanmasi hajmida etakchi o‘rinni Andijon shahri (2 285,2 mln. yo‘lovchi-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko‘rsatkich bilan Asaka (605,9 mln. yo‘lovchi-km), Andijon (346,8 mln. yo‘lovchi-km) tumanlarida kuzatildi.




**Shahar va tumanlar kesimida yo‘lovchi aylanmasi, mln. yo‘lovchi-km**  
(2021- yil yanvar-iyun holatiga)

	<i>mln. yo‘lovchi-km</i>	<i>2020- yilning yanvar-iyuniga nisbatan % hisobida</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Viloyat bo‘yicha:</b>	<b>5 705,3</b>	<b>102,8</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Andijon	2 285,2	103,7	40,1
Xonobod	152,6	101,8	2,7
<i>tumanlar:</i>			
Andijon	346,8	102,8	6,1
Asaka	605,9	102,5	10,6
Baliqchi	209,2	101,3	3,7
Bo‘ston	92,6	101,2	1,6
Buloqboshi	117,1	102,2	2,1
Jalalquduq	236,9	102,0	4,2
Izboskan	239,8	102,7	4,2
Qo‘rg‘ontepa	295,8	102,2	5,2
Marhamat	180,1	101,7	3,2
Oltinko‘l	182,3	101,9	3,2
Paxtaobod	237,9	102,1	4,2
Ulug‘nor	153,3	101,1	2,7
Xo‘jaobod	183,7	102,0	3,2
Shahrixon	186,3	102,2	3,3

Ko‘rsatilgan yo‘lovchi aylanmasidagi uncha yuqori bo‘lmagan yo‘lovchi-km Buloqboshi (117,1 mln. yo‘lovchi-km) va Bo‘ston (92,6 mln. yo‘lovchi-km) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Tashilgan yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida  
hududlarning ulushi, % da  
(2021- yil yanvar-iyun)**



Shahar va tumanlar kesimida yo'lovchi aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha etakchi o'rinni Andijon (40,1 %) shahri egalladi. Shu bilan birga Asaka (10,6 %), Andijon (6,1 %) tumanlarida kuzatildi.

**Avtomobil transportida yuk tashish, yuk aylanmasi,  
yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)**

